

-amaliyot mobaynida o'qituvchilar va shaxsiy tajribalarni umumlashtirish, tahlil qilish hamda ommalashtirish va h.k.

Pedagogik amaliyot talabalarining nazariy tayyorgarligini boyitadi, olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishga, amaliy vazifalarini hal qilish uchun o'rganilayotgan fanining nazariy qoidalardan foydalanishga imkon beradi.

Pedagogik amaliyotning ta'limi xarakteri samarasi ko'pincha oliy o'quv yurti va mакtabning o'zaro hamkorlikda olib borilgan ishlarga bog'liq. Pedagogik amaliyot o'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashda, yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarish, mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlashda bo'lajak o'qituvchi uchun birinchi jiddiy sinov bo'lib hisoblanadi, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy pedagogik fazilatlarining shakllanishiga amaliyot davridagi o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida mustaqil ishlashga ham faol ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
3. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: O'zbekiston. NMU, 2019. – 400 b.
4. Abduqodirov A. Ta'linda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – 180 b. Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005. – 157 b.
5. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o'kitish texnologiyalari. – T., 2001. – 69 b.
6. Alimov A.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss... – T., 2018. – 142 b.
7. Jumayeva.M.A.Bo'lajak o'qituvchilarini kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi ped.fan.dok.(PhD) diss.-Buxoro. 2022.yil.

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VOSITA SIFATIDAGI RIVOJLANISHI

**Negmatova Sanobar Qarshiboyevna
O'zbekiston, Navoiy innovatsiya universiteti
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi o'qituvchisi**

Annotatsiya: Maqolada bolada ichki nutq tarkib topishi, bola nutqining rivojlanishidagi muhim psixologik xususiyatlari, har bir yosh guruh bolalarning yosh xususiyatlari va imkoniyatlari, bolalarning tafakkurini va uning

kommunikativ munosabatini barcha jihatlarini o'stirishning ahamiyati haqida so'z yuritaladi.

Kalit so'z: situativ nutq, nosituativ bilish, lug'at tarkibi, bolalar leksikasi, grammatik murakkablashish, abstrakt tushuncha, irodaviy va intellektual harakatlar

РАЗВИТИЕ РЕЧИ ДОШКОЛЬНИКОВ КАК КОММУНИКАТИВНОГО СРЕДСТВА

Аннотация: в статье рассматриваются содержание внутренней речи ребенка, важные психологические особенности в развитии детской речи, возрастные особенности и возможности детей каждой возрастной группы, важность развития всех сторон детского мышления и их коммуникативной установки.

Ключевые слова: ситуативная речь, неситуативные знания, словарный запас, детский лексикон, грамматическая сложность, абстрактное понятие, волевые и интеллектуальные действия.

THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN'S SPEECH AS A COMMUNICATIVE TOOL

Abstract: the article discusses the content of inner speech in a child, important psychological features in the development of a child's speech, age characteristics and capabilities of children of each age group, the importance of developing all aspects of children's thinking and their communicative attitude.

Key words: situational speech, non-situational knowledge, vocabulary, children's lexicon, grammatical complexity, abstract concept, volitional and intellectual actions.

“...Kishining martabasini so‘zi bila bilurlar, ammo so‘zning martabasini kishi bila bilmalar, chunki har kishining ahvoli o‘z so‘zining ostida pinhondur” [1]- deydi unsurulmaoliy Kaykovus. Zotan har bir kishining kim ekanligini, uning bilim darajasini so‘zlariga qarab bilib olish mumkin. Donishmandlar nazdida, inson so‘zi bilan taniladi, axloqi bilan maqtaladi.[2] Ajdodlarlarimiz so‘z san’atining, ayniqsa, og‘zaki ijrochilik san’atining inson ruhiga ko‘rsatadigan ta’siriga qadim zamonlardan boshlab katta e’tibor bilan qaraganlar.

Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqati bilan uzviy bog’liqdir. Bola jumlalarining mazmuni va shaklidagi o‘zgarish uning muloqat shakllari o‘zgarishi bilan bog’liq bo‘ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo‘naltirilgan va nosituativ - shaxsiy muloqot shakliga o‘tilishi bolalar nutqiga ma’lum bir talablarni qo‘yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalami hal qilishi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Maktabgacha yoshidagi bolaning nutqi ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish funksiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo‘ladi. [3] Maktabgacha yoshda bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so‘z-lug’at boyligining o‘sishida ikki muhim tomon -

miqdor va sifat tomonlari mavjud. Lug'at boyligining miqdoriy o'sishi D.B.Elkoninning ko'rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. So'nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug'at tarkibini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlandi. Jumladan, V.Loginaning ma'lumotlariga ko'ra 3 yoshga kelib, bola lug'atida 1200 ta so'z mavjud bo'ladi, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 3000-3500 so'zni o'z ichiga oladi. Vaholanki, 40-60 yil oldin o'tkazilgan tadqiqotlarda 3 yoshli bolaning lug'ati 400-600 so'zdan, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 2500-3000 so'zdan iborat deb ko'rsatilgan edi.[4]

Situatsion - ishchan muloqot shaklidagi bolalar leksikasi (nutqi) aniq predmetli vaziyat bilan bog'liq. Bu holat shunda ko'rindiki, bolaning nutqida ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'p bo'ladi. Sifat turkumidagi so'zlar yoki umuman uchramaydi, yoki buyumlarning faqat tashqi xususiyatlari: rangi, o'lchami (barcha sifatlarning 96,4%)ni ifodalaydi. 98% fe'llar faqatgina konkret predmetli harakatlarga nisbatan ishlatiladi.

Bolalaraing nosituativ - bilishga yo'naltirilgan (vaziyatga - situasiyaga bog'liq bo'lmasigan) muloqotida ular kattalardan har xil narsa va hodisalar haqida axborot olishga bog'liqlikdan ozod bo'ladi. Asta-sekin atrof-olamdag'i narsalarning turli xususiyatlarini aks ettiruvclii so'zlar zahirasi kengayib boradi. Jumladan, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifat turkumiga oid so'zlar (11,25%) va emosional xususiyatlami ko'rsatuvchi so'zlar (5%) paydo bo'ladi, irodaviy va intellektual harakatlarni anglatuvchi fe'l turkumidagi so'zlar (6,24%) vujudga keladi.

Nosituativ - shaxsiy muloqotda, bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar haqida axborot olishga, o'zining fikrini kattalar fikri bilan taqqoslashga harakat qilar ekan, uning nutqida umumiylar murakkablashish ro'y beradi. Sifat turkumidagi so'zlar quyidagi nisbatda bo'ladi: atributiv (tashqi xususiyatlarini ifodalovchi) - 69,80%, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar - 14,65%, ahloqiy xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar - 9,3%. Irodaviy va intellektual harakatlarni ifodalovchi fe'llar ancha ko'payib, nutqida ishlatilayotgan barcha fe'llarning 9,76%ni tashkil etadi.

Bolaning lug'at boyligi nafaqat miqdor jihatdan, balki sifat jihatdan ham o'sib boradi. Bu asosan bolalarning so'zlar mazmunini o'zlashtirishi bilan kechadi. Lug'atni egallah jarayoni tushunchalarni egallab borish bilan uzviy bog'liq. L.S.Vigotskiy yozishicha, "Psixologik tomondan olib qaraganda, so'zlarning mazmuni va ma'nosi - bu umumlashma yoki tushinchadan o'zga narsa emas. Biz so'zning ma'nosini bemalol tafakkur fenomeni deb hisoblashga haqlidirmiz".

Bog'cha yoshidagi bolalar eng avvalo ko'rgazmali ifodalangan yoki ularning faoliyatlariga jalb etilgan predmetlar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarning nomlanishini o'zlashtiradi. Buni bola tafakkurining ko'rgazmali-harakat va ko'rgazmali-obrazli xarakterda ekanligi bilan tushintirish mumkin. Shu tufayli ham, bog'cha yoshidagi bolalar lug'atida abstrakt (mavhum) tushunchalar deyarli uchramaydi.

Agar 3-7 yoshdagi boladan berilgan topshiriqda nutqiy faoliyatning elementi bo'lmish so'z bilan muayyan amallarni bajarish talab etilsa, masalan, gap tarkibidan so'zlarni ajratib olish vazifasi berilsa, S.N.Karpovaning tadqiqoti ko'rsatishicha, bolada unga aytilgan gap belgilaydigan vaziyatga orientir olishning ancha barqaror moyilligi kuzatiladi. Berilgan gap tarkibida nechta so'z mavjud degan savolga bolalar gapni "boshdan oyoq" qaytadan takrorlaydi. Masalan, "Koptok yumalab ketdi" degan gap berilsa, bola (5-9 yoshli) bu gapda bitta so'z "Koptok yumalab ketdi" degan so'z borligini aytadi.

S.N.Karpovaning tadqiqoti shuni isbotladiki, bog'cha yoshidagi bolada gap tarkibidan barcha turdag'i so'zlarni ajratib olish ko'nikmasini shakllantirish mumkin. Buning uchun ularga so'zning mezonlarini, ya'ni so'z tovushlarining majmuasidan iboratlilagini, so'z doim muayyan mazmunga egaligini anglashi lozim (albatta, bolalar yoshiga mos keluvchi usullar bilan) bo'ladi. Shunday qilinganda, yoshidan qat'iy nazar bolalarda so'z haqida adekvat va anglangan tasavvurlar paydo bo'ladi.

Katta bog'cha yoshi davrida so'zlaraing tuzatilishini stixiyali tarzda o'zlashtirish natijasida bolalarda so'zni tarkibi jihatdan tahlil etishning elementar shakllari yuzaga keladi. Nutqning fonetik (tovush) sistemasini o'zlashtirish jarayoni tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va fonematik eshitishning rivojlanishini o'z ichiga oladi.

Nutqning fonetik tarkibini o'zlashtirish 1 yoshning oxirlariga kelib boshlanadi. Kichik bog'cha yosh davridayoq bolalar asosan ona tilining barcha tovushlarini egallab bo'ladilar. Biroq shunday bog'cha yoshidagi bolalar ham uchraydiki, ularda ancha katta yoshda ham nutqiy nuqson, talaffuz kamchiliklari uchraydi. Buning asosiy sababi nutq apparati motorikasining sekin rivojlanishidir.

Muloqot deganda o'zaro munosabatlarning shakllanishi, ro'yobga chiqarilishi va namoyon bo'lismeni ta'minlovchi informatsion emotsiyonal va predmetli o'zaro ta'siri jarayoni tushuniladi. Bola shaxsining shakllanishida muloqotning roli benihoya kattadir. Muloqot jarayonida muayyan shaxsiy munosabatlar shakllanadi. Bolada qanday shaxsiy sifatlarning tarkib topishi ko'p jihatdan uning atrofdagilar bilan bo'lgan o'zaro munosabati xarakteriga bog'liqdir. Bolaning kattalarga munosabati ishonchli yoki ishonchsiz, yoqimli yoki yoqimsiz va hokazo bo'lishi mumkin. Xo'sh bolalarning kattalarga bo'lgan munosabati nima bilan belgilanadi? Bu munosabat asosida nimalar yotadi? Bunday masalalarga nisbatan turlicha yondoshuvlar mavjud. Neofreydistlar (Freydning davomchilari) bolalarning kattalarga bo'lgan munosabati shakllanishida onaning o'rni hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblaydilar. Ularning fikricha bunga sabab shundaki, ona bolaning "orol ehtiyoji"ni qondiradi. Biroq nega bo'lmasa onasidan ayirilib qolgan bolalaraing ham jismoniy va psixik jihatdan normal rivojlanishi holatlari uchraydi. Bolaning uni oziqlanlirmagan u bilan faqatgina o'ynagan yoki muloqatga kirishgan kattalarga qattiq bog'lanib qolishini neofreydisk pozisiyadan turib qanday qilib tushintirish mumkin? Biologik omilning rolini mutlaqlashtiravchi psichoanalitik yondashuv ushbu savollarga javob berolmaydi.

“Impirinting” - qayd etish nazariyasining tarafdarlari ham atrofdagilarga bo’lgan munosabatining shakillanishida ilk tajriba muhim birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydilar. “Impirinting” gipotezasiga muvofiq ilk bolalik davridagi bolalarda ular bilan doimiy muloqotda bo’luvchi kishining xususiyatlari - tashqi qiyofasi, ovozi, kiyimi, hidi qayd etib qolinadi.

Boshqa bir yo‘nalish - neobixevioristik yo‘nalishga muvofiq bolaning katta kishiga bo’lgan munosabati bu kishi bolaning birlamchi, organik ehtiyojlari (oziq-ovqat, issiqlik, qulaylikka bo’lgan ehtiyojlarini) qanchalik qondirishi bilan belgilanadi.

So‘z yakunida shuni ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, MTT tarbiyalanuvchilarida shaxslik sifatlarini shakllantirish ancha murakkab jarayon. Bu yoshdagi bolaning hayotiy tajribasi kam va u xulosa chiqarishni bilmaydi. U ko‘proq taqlid qiladi. Bolalar bog‘chalarida amalga oshiriladigan ta’lim va tarbiya jarayoni tarbiyalanuvchilarning yoshi, intellektual imkoniyatlariga mos holda xulosa chiqarishga emas, fikr aytishga, munosabat bildirishga qaratilishi maqsadga muvofikdir. Shu tufayli MTT tarbiyachilarining vazifasi mashg‘u!otlarda masalani to‘g‘ri qo‘ya bilish, bolani qiziqtira olish, uning tuyg‘ularini uyg’ota bilishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Q.Husanboyeva va boshqalar “Maktabgacha ta’limda badiiy matn bilan ishslash metodikasi” 2020 yil
2. D.Babayeva”Bolalar nutqini o’stirish nazariysi va texnologiyasi” T: 2022yil
3. D.R. Babayeva va boshqalar “Bolalar nutqini o’stirish” o’quv qo’llanma T. “Innovatsiyon-ziyo”: 2021yil.
4. Z. Nishonova va boshqalar “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi”, o’quv qo’llanma “INNOVATSIYON-ZIYO”:, 2021 yil
5. Do’stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar, 2013 yil
6. Kubayeva M. B. IMPLEMENTATION OF VISUAL-DIDACTIC GAMES IN ECOLOGICAL EDUCATION OF STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. –2022. –T. 3. – No. 01. –C. 1-4.13.
7. Кубаева М. Visual technologies based on the principles of demonstration is the foundation for pre-schoolers“ education //in Library. –2022. –T. 22. – No. 2. –C. 189-200.
8. Кубаева М. Ekologiktarbiya berishda vizual texnologiyalardan foydalanish //in Library. –2022. –T. 22. –No. 1. –C. 8-11.
9. Кубаева М. Секреты пробуждения любви к природе //inLibrary. –2021. – T. 21. –No. 2. –C. 51-53.
- 10.Kubaeva M. B. Q. THE USE OF VISUAL TECHNOLOGIES OF EDUCATION IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL

CHILDREN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //CURRENT RESEARCH
JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 6-10.

- 11.М Кубаева Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda vizual texnologiyalarning o'rni // in Library 2021 (1), 102-105
12.М Кубаева Важность экосистемного образования для дошкольников// in Library 2022 (4), 921-926

**TALABA-YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI
PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.**

**Ro‘ziyeva Nafosat Abdumumin qizi
Navoiy innovatsiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи
o‘qituvchisi**

Annotasiya: Ushbu maqolada yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya va keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash xususida so‘z yuritilgan bo‘lib, talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyasining muhim ijtimoy va pedagogik jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim, talaba-yoshlari, ta‘lim-tarbiya, odob-axloq, ma’naviyat, ma’rifat, ilm-fan tafakkur.

**ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ КАК
ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

Аннотация: В статье говорится о воспитании самоотверженной и патриотичной молодежи, обладающей высоким моральным духом, твердой жизненной позицией и широким кругозором, а также проводится анализ важных социально-педагогических аспектов нравственно-нравственного воспитания студенческой молодежи.

Ключевые слова: Высшее образование, студенческая молодежь, образование, нравственность, духовность, просвещение, научное мышление.

**SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS AS A
PEDAGOGICAL PROBLEM**

Abstract: This article talks about educating selfless and patriotic young people with high morale, a firm life position and a broad outlook, and an analysis of the important social and pedagogical aspects of moral and moral education of students done

Key words: Higher education, student-youth, education, morals, spirituality, enlightenment, scientific thinking.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga